

Abdullayeva Shaxnoza Abdullayevna
Tadqiqotchi, TDSHU
Ilmiy rahbar PhD, Z.A.Qodirova

O’ZBEKISTON TASHQI IQTISODIY FAOLIYATIDA EKSPORTNI TAKOMILLASHTIRISH YO’NALISHLARI

Annotatsiya. Ushbu maqola O’zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatida o’rni va bu sohadagi asosiy hamkorlik yo’nalishlariga bag’ishlangan. Maqolada so’nggi o’n yillik statistik ma’lumotlar asosida O’zbekiston eksportining rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Shu bilan birga O’zbekistonning jahon bozoriga integratsiyalashuvdagi mavjud muammolar va amalga oshirilishi lozim bo’lgan chora-tadbirlar borasida takliflar ko’rsatilgan.

Tayanch so’z va iboralar: Zamonaviy logistika, YaIMda eksport ulushi, kooperatsiya, hamkorlikdagi eksport loyihalar, imtiyozli bojxona rejimlar, biznes subyektlar, integratsiyalashuv.

Аннотация: Данная статья посвящена роли Узбекистана во внешнеэкономической деятельности и основным направлениям сотрудничества в этой сфере. В статье анализируются тенденции развития узбекского экспорта на основе статистических данных за последнее десятилетие. При этом были внесены предложения по текущим проблемам интеграции Узбекистана в мировой рынок и мерам, которые необходимо принять.

Опорные слова и выражения: Современная логистика, доля экспорта в ВВП, сотрудничество, совместные экспортные проекты, льготные таможенные режимы, бизнес субъекты, интеграция.

Abstract. This article is devoted to the role of Uzbekistan in foreign economic activity and the main areas of cooperation in this area. The article analyzes the development trends of Uzbek exports on the basis of statistics for the last decade. At the same time, proposals were made on the current problems of Uzbekistan's integration into the world market and the measures to be taken.

Keywords and expressions: Modern logistics, the share of exports in GDP, cooperation, joint export projects, preferential customs regimes, business subjects, integration.

Dunyoning hech bir mamlakati boshqa davlatlar bilan o’zaro savdo aloqalarini olib bormasdan turib samarali rivojlana olmaydi. Chunki tashqi bozor mamlakatdagi ishlab chiqarish va iste’molni faollashtirib milliy iqtisodiyotning rivojiga ta’sir ko’rsatadi. Shu bois O’zbekiston ham jahon hamjamiyati bilan iqtisodiy aloqalarni o’rnatishga va kengaytirishga katta ahamiyat berib kelmoqda. Shuningdek

mamlakatlar tashqi iqtisodiy faoliyatida eksport salohiyati o’ziga xos xususiyatga ega bo’lib, bu borada mamlakatimizda so’nggi yillarda eksportni rivojlantirishga katta e’tibor qaratib kelinmoqda.

Xususan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 22 dekabrda “O’zbekiston Respublikasini 2018-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan” Murojaatnomasida tashqi siyosat masalasiga alohida urg’u berilgan holda, unda mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni xorijiy davlatlar bozorlariga eksport qilishga har jihatdan amaliy ko’maklashish dunyodagi ko’plab davlatlar, xususan, rivojlangan mamlakatlarning tashqi siyosat faoliyatida aynan shu masalaga eng ustuvor ahamiyat berilishini ta’kidlagan¹.

O’zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatida MDH mamlakatlari bilan hamkorlik, kooperatsiya va hamkorlikdagi eksport loyihalari uchun imtiyozli bojxona rejimlari, mashina-texnika eksportini rivojlantirish va hokazolar eksportni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Mamlakat tashqi savdo siyosatida eksport hajmini oshirib borish va unda xom ashyoga bog’liqlikni kamaytirib borishga e’tiborni qaratish jahon bozoriga integratsiyalashuvni faollashtirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.


Jahon bozoriga integratsiya qilish va eksportni qo’llab-quvvatlash 2019-yil uchun mo’ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar qatoridan o’rin olgan bo’lib, bu borada O’zbekiston Respublika Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yilda eksport hajmini 30 foizga oshirib, 18 milliard dollarga yetkazish maqsad qilinganini, biz eksportga yo’naltirilgan iqtisodiyotga o’tishimiz, ichki bozorda raqobat muhitini shakllantirishimiz zarurligini ta’kidlagan. Bu borada transport-logistika tizimini takomillashtirish, “Uzbekistan Airways” va “O’zbekiston temir yo’llari” kompaniyalari tovarlarimizni eksport qilish bo’yicha zamonaviy logistika yo’nalishlarini yaratishlari, eksport yuklarini qo’shni davlatlardan temir yo’l orqali imtiyozli narxlarda o’tkazish choralari ko’rish, bojxona tartiblarini keskin soddalashtirish, bojxona nazorati punktlari hamda yuklarni rasmiylashtirish postlarini tubdan isloh qilish zarurligi belgilab qo’yilgan edi.

Amalga oshirilgan sayi-harakatlar natijasida 2019-yilda mamlakatimizda eksport hajmini 17,9 milliard dollarga yetkazildi. Bu maqsadga nisbatan 0,1 milliard dollarga kam, ammo, 2018-yilga nisbatan yaxshiroq hisoblanadi.

Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirib borish, chuqur qayta ishlangan, tayyor, qo’shilgan qiymatning hissasi yuqori bo’lgan mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlarni jadal, rivojlantirish va ularning YaIM hamda mamlakat eksportidagi ulushini ko’paytirish muhim ahamiyatga ega. So’nggi yillarda YaIM tarkibida tovarlar ishlab chiqarishda yalpi qo’shilgan qiymatga ega bo’lgan mahsulotlar yaratilishining ortishi, mamlakat eksportida qo’shilgan qiymati yuqori

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. //http://uza.uz/oz/politics.

bo’lgan mahsulotlar ulushi sezilarli darajada o’sdi. Mamlakatda 2019-yilda jami qo’shilgan qiymatga ega mahsulotlarning 56,5 % kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari ulushiga to’g’ri keladi. Shu nuqtai nazardan mamlakat YaIMni yillar davomida o’zgarish hajmini hamda undagi eksport hajmining o’sish tendensiyasini 1-rasmdan ko’rishimiz mumkin.




1-rasm. O’zbekiston YaIM hamda undagi eksport hajmining o’sish dinamikasi (1997-2019 yillar mlrd.AQSh dollar).

Manba: [https://www.worldbank.org.\(World Bank\)](https://www.worldbank.org.(World Bank))

Izoh: 2019 yil yakunlariga ko’ra, O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining o’rtacha yillik kursi bo’yicha hisoblangan YaIM hajmi 57 907 mln. AQSh dollarini tashkil etdi (2018 yilda – 50 497 mln.AQSh doll.). Ma’lumot uchun: AQSh dollarining so’mga nisbatan rasmiy kursi o’rtacha yillik hisobda 2018 yilda 8 069 so’m, 2019 yilda 8 839 so’mga teng bo’lgan.

Eksportning mamlakat YaIMdagi ulushini tahlil qilar ekanmiz, 1997 yilda YaIM hajmi 14,7 milliard dollarni tashkil etgan bo’lsa, uning YaIM hajmiga nisbatan eksport ulushi 27,2 % ni tashkil etdi. Yildan yilga bu ko’rsatkich o’zgarib borib, YaIMning eksport omili faollashdi va 2019-yilda bu ko’rsatkich YaIM hajmi 57,9 milliard dollarni yoki undagi eksport ulushi 31 % ga yetdi. O’zbekistonning 1997 yildan 2019-yilgacha bo’lgan davr mobaynida eksport hajmining o’rtacha qiymati 9,3 milliard dollarni tashkil qilgan bo’lib, eng kami 3 milliard dollar va 2019-yilda eng yuqori 17,9 milliard dollarni tashkil etdi.

So’nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo’llab-quvvatlash, import o’rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o’zgarishga erishildi. Jumladan, xom-ashyo eksportidan, qo’shilgan qiymati yuqori bo’lgan hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo’naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.



2-rasm. O‘zbekistonning 2010-2019 yillar eksport tarkibi, (%).

Manba: O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallifning hisob-kitoblari. Merchandise trade / [https:// nsdp.stat.uz/](https://nsdp.stat.uz/)

2010-2019 yillarda O‘zbekiston tovar va xizmatlar eksporti tarkibida bir qator jiddiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Paxta tolasi eksportining shu davr mobaynida 82,1 % ga kamayishi bilan uning umumiy tovar va xizmatlar eksportidagi ulushi 2010-yildagi 12,1 % dan 2019-yildagi 1,5 % gacha pasaydi.

Ta’kidlash joizki, paxta tolasining eksport narxining o‘shishi qisman uning eksporti pasayishi bilan qoplandi. Paxta tolasini eksport qilish hajmi paxta ishlab chiqarishning pasayishi va mahalliy to‘qimachilik sanoatining o‘shishi kabi omillar ta’sirida kamaydi. Misol tariqasida, paxta tolasining umumiy eksportdagi ulushi bo‘yicha o‘zgarish tendensiyalarini ko‘rishimiz mumkin. Mustaqillikka erishgan ilk yillarda Respublikamiz engil sanoatida faqatgina paxta xom ashyosi eksport qilingan bo‘lsa, hozirda esa tayyor to‘qimachilik va engil sanoat mahsulotlari etkazib beruvchi eksportyor sifatida dunyo iqtisodiyotida o‘z o‘rnini egallab kelmoqda.

2010-yilda paxta tolasi eksport hajmi 1572,7 million dollari, yoki umumiy eksportning 12,1 % ni tashkil etgan bo‘lib, 2019-yilda esa, eksport hajmi 281,6 ming dollari, yoki jami eksportning 1,5 % ni tashkil qilib, ya’ni so‘nggi 10 yil ichida 5 barobarga qisqardi. Bunday qisqarishning asosiy sababi, to‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi va bevosita paxta xom ashyosi eksportini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish orqali eksportni oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasidir.

Shuningdek, tahlillarga ko‘ra, oltin eksporti hajmining o‘zgarishi hisobiga, umumiy tovarlar eksportida qimmatbaho metallar eksporti ulushining sezilarli darajada o‘zgarishi kuzatildi, bu 2010-yildagi 20,1 % dan 2019-yilda 27,5 % gacha o‘ydi.

Oltin eksporti asosiy eksport mahsulot sifatida paxta tolasi eksporti o‘rni bilan

almashdi. Shuningdek, energiya manbalari va neft mahsulotlari (asosan tabiiy gazdan iborat) jami eksportdagi ulushi 2010-yildagi 22,8 % dan 2019-yilda 14,1 % gacha kamaydi. Xizmatlar ulushining ham 10 yil mobaynida keskin ortganini koʻrishimiz mumkin (2,6 barobarga) hamda umumiy eksportning oshishi hisobidan meva va sabzavotlarning eksporti ham sezilarli darajada oʻsdi.

Energiya manbalari va neft mahsulotlar guruhi tarkibiga kiruvchi gaz eksport hajmi oʻtgan yilga nisbatan 15 % ga oshgan. Mamlakat gazning eng koʻp qismini Xitoyga yetkazib berish hajmi qariyb 10 milliard kub metr, Rossiya 4 milliard kub metrni tashkil etadi, qolgan qismi esa qoʻshni Markaziy Osiyo mamlakatlariga toʻgʻri keladi.

Hukumatimiz tomonidan qishloq xoʻjaligi va bogʻdorchilikni rivojlantirishga katta eʼtibor qaratilayotgani bois mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni oʻzlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Shuningdek soʻnggi uch yilda eksport hajmi jadal oshib, 2017-yilga nisbatan 2 barobarga hamda 2018-yilga nisbatan 1,4 barobarga oshib, asosan Qirgʻiziston (26,6%), Qozogʻiston (23,6%), Rossiya (13,4%), Turkiya (8,3%) ga eksport qiladi.


Qora va rangli metallar eksporti 2017-yilda 917,5 million dollarni tashkil etgan boʻlsa, 2019-yilga kelib bu 1300,9 million dollarga yetib, 2017-yilga nisbatan 41,8, % ga, 2018-yilga nisbatan esa 11,5 % ga oʻsdi. Bu oʻsish asosan ushbu guruh tarkibiga kiruvchi mis va mis buyumlari, temir burchaklar, prutkalar va maxsus prifillar, rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar, qora metallardan tayyorlangan bosma va dagʻal buyumlarning eksport hajmi oshganligi bilan izohlashimiz mumkin. Ushbu mahsulotlar asosan Turkiya (4,2%), Xitoy (1,1%), Rossiya va Qozogʻistonga eksport qilinadi.

Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar 2017-yilda eksporti hajmi 883,2 million dollarni tashkil etgan boʻlsa, 2019-yilda esa 876,9 million dollarni tashkil etdi. 2017-yilga nisbatan eksport hajmi 0,7 % ga kamaygan boʻlsa, 2018-yilga nisbatan esa 3,1 % ga kamaygan. Baʼzi kimyoviy mahsulotlar tarkibidagi mahsulotlar eksportining oʻsishiga qaramasdan, plastmassalar va ulardan tayyorlangan buyumlar eksporti kamayishi hisobiga umumiy kimyo mahsulotlari eksporti kamayishiga olib kelgan. Turkiya davlatiga oʻtgan yilga nisban ushbu mahsulotlar eksporti qariyb 2 barobarga kamaydi.

Mashina va asbob-uskunalar eksport hajmi 2017-yilda 353,3 million dollarni tashkil etgan boʻlsa, 2018-yilda 214,1 million dollarni, 2019-yilda eksport hajmi 451,4 million dollarga yetdi. 2017-yilga nisbatan eksport hajmi 27,8 % ga, 2018-yilga nisbatan esa 2,1 barobarga oshdi. 2019-yilda mashina va asbob-uskunalar eksportining oshish sababi, uning tarkibiga kiruvchi engil avtomobillar eksporti 4,2

barobar, avtobuslar va mikroavtobuslar 1,5 va yuk avtomobillar 1,6 barobarga oshgani mashina, asbob-uskuna va ularning qismlari eksporti hajmini oshishiga olib keldi. Ushbu tovarlar eksportining 2019-yilda oshishiga quyidagi davlatlar Qozog’istonga 3,2 barobarga, Turkiyaga qariyb 2 barobarga hamda Rossiyaga 1,5 barobarga eksport hajmining oshgani bilan izohlaymiz.

Iqtisodiyotni jahon bozoriga integratsiyalashning muhim shartlaridan biri bu qo’shni davlatlar iqtisodiyotlarining o’zaro bir-birini to’ldirishi hisoblanadi. U, eng avvalo, integratsiyalashayotgan mamlakatlar eksporti tarkibining turli xilligida namoyon bo’ladi. Chunki bir xil tovarlar eksporti bilan shug’ullanuvchi mamlakatlar real integratsiyalashuvi mumkin emas. Bu O’zbekistonning yaqin va qo’shni davlatlar bilan tashqi savdo aloqalari rivojlanishida ham o’z aksini topmoqda. Xususan, 2010-2019 yillar davomida O’zbekiston eksportida yaqin va qo’shni davlatlar ulushi oshib borgan va 2019-yilda eksportning 2/3 qismi ular hissasiga to’g’ri kelgan.



3-rasm. O’zbekistonning eksport geografik tarkibi, (%) (2010-2019 y).

Manba: O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi ma’lumotlari asosida muallifning hisob-kitoblari. External trade, Exports / <https://nsdp.stat.uz/>

Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Xitoy, Rossiya, Qozog’iston, Turkiya hissasiga to’g’ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 43 foizini tashkil qiladi.

O’zbekistonning eng yirik savdo hamkori bo’lgan Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) O’zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish bo’yicha dasturlarni amalga oshirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va sanoatning eksport salohiyatini yuksaltirishda faol ishtirok etmoqda. 2009-yilda imzolangan "Uzoq muddatli strategik tovarlar savdosi to'g'risida"gi shartnomaga muvofiq, O’zbekistondan Xitoyga tabiiy gaz, uran, mis, paxta tolasi, mineral o'g'itlar kabi strategik materiallarni eksport qilamiz, shuningdek, ip va

plastmassa mahsulotlarini etkazib beramiz².

Mamlakatimizning XXRga 2010-2014 yillarda o’rtacha eksport hajmidagi ulushi 3,5 % ni tashkil etgan bo’lsa, 2015-2019 yillarda Afg’onistonni, 2019-yilda Qozog’iston, Turkiya, Rossiyani ortda qoldirib, tovar va xizmatlar eksport hajmi 2519,0 million dollarni yoki jami eksportning 14,1 % ini tashkil etib, eng yirik eksport hamkorimizga aylandi (3-rasm).

O’zbekistonning yirik hamkorlaridan yana biri Rossiya Federatsiyasidir. O’zbekiston Rossiyaning Markaziy Osiyodagi asosiy savdo sheriklaridan biri bo’lib, Qozog’istondan keyin ikkinchi, MDH hududida to’rtinchi o’rinni egallaydi. O’zbekistondan Rossiyaga 2010-2014 yillarda tovarlar eksporti o’rtacha hajmining ulushi 29,5 % ni tashkil etdi. Rossiya O’zbekistonni iqtisodiy rivojlanishidagi tashqi omil sifatidagi mutlaq roli pasaymagan bo’lsada nisbiy roli pasaydi, ya’ni keying 5 yillikda o’rtacha eksport ulushi 14,3 % ni va 2019 yilda eksport ulushi 14,4 % ni tashkil etib, 2010-2014 yillarga nisbatan 15,2 punktga pasaydi. Bu holat O’zbekistonning oxirgi 5 yilda eksport geografiyasini diversifikatsiyalanganidan dalolat beradi, lekin shunday bo’lsada 2019-yilda hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo’yicha geografiyasi 2018-yilga nisbatan 182 davlatdan 179 davlatgacha kamaydi.

O’zbekistonning boshqa yirik eksport hamkori Qozog’iston bo’lib, ushbu mamlakatga tabiiy gaz, transport vositalari, avtomobillar, mineral o’g’itlar, to’qimachilik, elektrotexnika va qurilish mollari, meva-sabzavot va boshqa ko’plab tovarlar, xizmatlar eksport qilinadi. Xususan, 2019-yilda Qozog’istonga eksport hajmi 1429,7 million dollarni tashkil etib, o’tgan yilga nisbatan 5,7 % ga o’sdi. 2019-yilda O’zbekistondan Qozog’istonga tovar va xizmatlar eksporti tarkibida eng katta ulush 30,7 foizini energiya manbalari va neft mahsulotlari 21,2 foizini oziq-ovqat mahsulotlari, hamda 10,0 foizini mashina va asbob-uskunalar tashkil qiladi.

O’zbekiston bilan Turkiya hamkorligi ayniqsa, so’nggi uch yilda ancha faollashdi. Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil oktyabr oyida Turkiyaga hamda Rejep Tayyip Erdo’g’onning 2018-yil aprelda O’zbekistonga davlat tashriflari o’zaro siyosiy ishonchni mustahkamlab, samarali hamkorlikka keng yo’l ochdi. 2019-yilda o’zaro savdo hajmi 2525,2 million dollardan oshdi hamda davlatimizning Turkiyaga tovar va xizmatlar eksport hajmi 1203,6 million dollar yoki umumiy eksportdagi ulushi 6,7 % ni tashkil etib, o’tgan yilga nisbatan 27,4 % ga o’shdi.

Mamlakatimiz Turkiya bozoriga yengil sanoat, kimyo, metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika, charm-poyabzal va qishloq xo’jaligi mahsulotlari eksport qilishni kengaytirishga tayyor. Bu borada Istanbul shahrida ochilgan O’zbek – Turk savdo uyi imkoniyatlaridan keng foydalanish mumkinligi alohida qayd etish

²<https://upl.uz>

mumkin. Ushbu mamlakatning rivojlangan sanoati, transport kommunikatsiyalari, dengiz yoʻllari, qishloq xoʻjaligi va turizm salohiyati Oʻzbekistonga foyda keltiradi.

Shuni alohida taʼkidlash joizki, bugungi kunda Oʻzbekiston oʻz tashqi savdo faoliyatida xorijiy sharq mamlakatlari bilan ham hamkorlikni rivojlantirishga alohida urgʻu berishi va kezi kelganda ularning tajribasidan foydalanishi bugungi kun talabidir. Bunday mamlakatlar qatoriga Turkiya, Malayziya, Yaponiya, BAA kabi mamlakatlarni kiritish mumkin. Bu borada Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti ham kelajakda ushbu mamlakatlar bilan xususan, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya, Turkiya, BAA, Evropa Ittifoqi va Osiyo mamlakatlari bilan siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-kommunikatsiya va madaniy-gumanitar aloqalarni yanada rivojlantirishga alohida ahamiyat berib oʻtgan.

Shu munosabat bilan Turkiya va Oʻzbekiston oʻrtasida transport sohasidagi hamkorlik kengaymoqda. Turkiya orqali Yevropaga multimodal xalqaro tashuvlarni yoʻlga qoʻyish muhimdir. Jumladan, 2019-yilda avtomobilda yuk tashish 33 foizga, temir yoʻlda 17 foizga, havo qatnovlari orqali 42 foizga oshdi. Shuningdek, oʻtgan yili Oʻzbekistonga 64 ming turkiyalik sayyoh tashrif buyurgan.

Turkiya rivojlangan toʻqimachilik sanoati bilan ham mashhur. Mamlakatimizda Turkiyaning yetakchi kompaniyalari bilan toʻqimachilik korxonalarini tashkil etish va yetishtirilayotgan paxtani toʻliq qayta ishlab, tayyor mahsulot uchun sertifikatlashni joriy etish va jahon bozoriga yoʻnaltirish moʻljallanmoqda. Buning uchun Ege, Okan va Istanbul texnika universitetlari bilan muzokaralar olib borilmoqda.

Sogʻliqni saqlash va tibbiy taʼlim sohalarida, yetakchi tadqiqot markazlari oʻrtasida tajriba almashish hamda professional kadrlar tayyorlash borasidagi hamkorlik ham muhim ahamiyatga ega. Bu borada oʻtgan yili Buxoro davlat tibbiyot institutida xalqaro fakultet tashkil etilib, 131 talaba oʻqishga qabul qilinganini qayd etish oʻrinli. Turkiya bilan hamkorlikda bunday qoʻshma taʼlim dargohlarini koʻpaytirish, hududlarda tibbiyot darajasini oshirish va aholini sifatli tibbiy xizmat bilan qamrab olish, tibbiy turizmni rivojlantirish rejalashtirilmoqda. Shuningdek, Oʻzbekistonda onkogematologiya, kardiojarrohlik, oftalmologiya yoʻnalishlarida zamonaviy qoʻshma klinikalar va diagnostika markazlari tashkil etish, kichik biznes, toʻqimachilik kabi yoʻnalishlarda qoʻshma taʼlim dasturlarini amalga oshirish, klasterlar uchun mutaxassislar tayyorlash kabilar rejalashtirilgan.

Turkiya bilan Oʻzbekistonni mushtarak til va tarix, oʻxshash madaniyat va anʼanalarga asoslangan yaqin doʻstlik va qardoshlik munosabatlari birlashtirib turadi. Izchil muloqotlar va mushtarak intilishlar natijasi hamkorlik rivojida yaqqol namoyon boʻlmoqda. Masalan, 2016-yilda oʻzaro tovar ayirboshlash hajmi salkam 1,2 milliard AQSH dollari boʻlgan boʻlsa, 2019-yilda bu koʻrsatkich 2,5 milliard dollardan oshdi, 2020 yilga kelib oʻzaro tovar ayroboshlash hajmini 5 mld. AQSh dollarga etkazishga

kelishib olindi.

Turkiyaning turli sohalardagi yutuqlarini o’rganish, ilg’or tajribalaridan foydalanish, O’zbekistonda amalga oshirilayotgan qo’shma loyihalarga turk tadbirkorlari va kompaniyalari sarmoyalarini jalb qilish mamlakatimiz manfaatlariga to’la mos keladi. O’z navbatida, O’zbekistonning ulkan bozori, tobora erkinlashayotgan iqtisodiyoti, qulay investitsiyaviy muhiti, tarixiy shaharlari va muqaddas qadamjolari Turkiyada katta qiziqish uyg’otmoqda. Ya’ni hamkorlikni mustahkamlashdan har ikki tomon ham manfaatdor.

Tashqi savdoni tarif va notarif tartibga solish masalalari hozirgi kundagi dolzarb masalalar qatoridan o’rin olganligi bilan ahamiyatli bo’lish bilan birga har qanday davlatning jahon iqtisodiyotida o’z o’rnini topishda ma’lum ma’noda milliy iqtisodiyotni samarali boshqarish dastaklaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Xalqaro tajribaga ko’ra tashqi savdo faoliyati barcha davlatlar tomonidan tartibga solinishi, tashqi savdoni boshqarish orqali davlatning milliy iqtisodiy manfaati va strategik maqsadlari ko’zlanadi.

Shuningdek, tashqi savdo faoliyatida bir qator muammolar ham borki, ularni hal qilinishi O’zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining yanada takomillashtirishida muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Bojxona rasmiylashtiruvda yuklar ko’pincha kechikishi, xususan, Jahon bankining “Doing Business” 2020 reytingiga ko’ra, “Xalqaro savdo” yo’nalishi bo’yicha mamlakatimiz 190 ta davlat orasida 152-o’rinda qayd etilgani ham shundan dalolat beradi. Eksport paytida chegara va bojxona nazoratidan o’tish vaqti 112 soatni, hujjatlarni rasmiylashtirish ishlari esa 96 soatni, import esa 111 va 96 soatni tashkil etadi;

• O’zbekistonning bojxona sohasidagi amaldagi me’yoriy-huquqiy bazasi bir necha yuz normativ-huquqiy hujjatlardan iborat ekanligi. Bugungi kunda 1 ming 836 ta turdagi tovar bir vaqtda uchta idora tomonidan tekshirilishi, oqibatda import-eksport hujjatlarini rasmiylashtirish haftalab cho’zilayotgani tanqid qilinmoqda. Aksariyat mamlakatlarda ya’ni Malayziya, Koreya, Yaponiya va boshqa shunga o’xshash mamlakatlarda yuklar chegaraga yetib kelmasidan oldin ular haqida axborot berilib, yukning tez chiqib ketishi ta’minlanadi. O’zbekistonda esa o’tgan yili 416 mingta deklaratsiyadan atigi 344 tasi yuk chegaraga kelguncha rasmiylashtirilgan. Yuk to’g’risida oldindan ma’lumot berish avtomobil transportida 98 foizni tashkil etsa, temir yo’lda umuman yo’lga qo’yilmagan;

- Bojxona institutida o’qitish jarayoni zamon talabiga javob bermasligi;
 - Ayrim veterinariya va karantin punktlarida zarur jihozlar yo’qligi, chegaradagi sanitariya va epidemiologiya xizmati ham tashqi xavflarga tayyor emasligi;
 - Yuklar oqimini taqsimlash ishlarining oqilona tashkil etilmaganligi.
- Shuningdek, mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirish maqsadida

quyidagilarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

– eksport yuklarini qo’shni davlatlardan temir yo’l orqali imtiyozli narxlarda o’tkazish bo’yicha muzokaralarni izchil davom ettirish;

– yurtimizning barcha hududlarida zamonaviy talablarga javob beradigan, «yagona darcha» tamoyili asosida faoliyat ko’rsatadigan bojxona komplekslarini barpo etish;

– Jahon bankining «Logistika samaradorligi indeksi»dagi mamlakatimiz o’rnini yuqori pozitsiyaga ko’tarish choralari ko’rish;

– turizm eksportidan keladigan daromadni oshirish imkoniyatlaridan samarali foydalanish, jumladan, 2025 yilda yurtimizga tashrif buyuradigan xorijiy sayyohlar sonini hamda turizm eksportidan keladigan yillik daromadni oshirish;

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash joizki, O’zbekiston iqtisodiyotining jahon bozoriga integratsiyasini faollashtirish borasida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar yaqin kelajakda, albatta, o’z samaralarini ko’rsatadi. Shuningdek, O’zbekistonning Sharq mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni yaxshilashi va albatta bunday aloqalar orqali tajribalar almashinuvining amalga oshirilishi mamlakat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini yanada rag’batlantirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi 2018-yil 29-noyabrda PF-5587-sonli Farmoni.

2. O’zbekiston Respublikasi 2018 yil 29 iyundagi PQ - 3818-sonli qaroriga kiritilgan o’zgartirishlar va qo’shimchalar bilan tanishtirish to’g’risida 2019-yil 02-oktyabrda «Tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada tartibga solish hamda bojxona-tarif jihatdan tartibga solish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi PQ-4470-sonli Qarori.

3. Nur Aktas Muhittin Adiguzel. Turkiyenin dis ticaret sistemi ve sorunlari. Istanbul 2017.

4. <https://www.stat.uz> (O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi).

5. <https://www.mfa.uz> (O’zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi).

6. <https://unctad.org/en> (UNCTAD)

7. https://www.theglobaleconomy.com/Uzbekistan/exports_dollars/ (The world bank)

8. <https://upl.uz>

9. <http://www.chamber.uz/uz/news/5092>